

TRIXOFAGIYA TURLARIDA KUZATILADIGAN SHAXS XUSUSIYATALARI VA
MOYILLIKLARINI ANIQLASH

Sardor Dursunov

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi psixologiya pedagogika kafedrası asistent o'qituvchi

Sug'diyona Abdusattorova

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi davolash ishi 2-kurs talabasi

Аннотация: *Mazkur maqola turli xil shaxslarda kuzatiladigan obsessive kompulsiv buzilish, yani trixofagiya haqida shuningdek shaxslarda kelib chiqishining moyillik xususiyatlari, kasallikning kelib chiqishida tashqi omillarning ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan.*

Abstract: *This article is devoted to the study of the obsessive aversive disorder observed in various individuals, namely trichophagy, as well as the features of the predisposition of its origin in individuals, the importance of external factors in the origin of the disease.*

Kalit so'zlar: *kasallikning obsessiv xususiyati, kelib chiqish sabablari, komponentlar, turli insonlarda qanday kechishi, shaxs xususiyatlari.*

Keywords: *obsessive nature of the disease, causes of origin, components, how it proceeds in different people, personality traits*

Obsessiv –kompulsiv buzilish yoki xalq tilida vasvasa kasalligi, yopishqoq fikrlar orqali kehadigan psixologik buzulishdir. Odatda bu buzilish shaxsni zehnini sekin asta yopishqoq fikrlar bilan boshlab, so'ngra ko'payib bezovta qiladi. Ushbu jarayon uzoq mudat davom davom etadi (kamida 2 hafta bezovtalik kuzatilishi va shaxsni kundalik faoliyat sifatini tushirishi kerak. DSM-5)

Bugungi kunda insonlar orasida ushbu obsessiv kompulsiv buzilishlar turlari bilan xilma xil kuzatilishi mumkin. Aynan ular ichida "Trixofagiya" buzilishini kuzatishimiz mumkin. Trixofagiya bu sochni iste'mol qilish bilan tavsiflangan kasallik turidir. Xalqimiz orasida juda kam kuzatiladigan kasallik hisoblanib, xalq tilida "Rapunzel" nomini olgan.[1]

Sabablari etiologiyasi ishonchli tarzda aniqlanmagan. Ko'pchilik tadqiqotchilar trixofagiyani ma'lum shaxsiy xususiyatlar asosida turli xil tashqi ta'sirlar natijasida rivojlanishi mumkun bo'lgan holat deb hisoblashadi.

Birinchi alomatlar, qoida tariqasida, quyidagi omillar ta'siri ostida bolalikda paydo bo'ladi:

- Oilaga nisbatan mehrning yo'qligi,
- ota-onalar bilan aloqaning bo'lmasligi,
- hayotiy hissiy ehtiyojlardan mahrum bo'lishi,
- yaqinlarini rad etishi va shuningdek
- ota-onaning farzandini tashlab ketishi yoki o'limi tufayli yolg'izlikdan qo'rqishi,

• erta yoshda oilasidan ajralgan uzoq qarindoshlari bilan ko'p muddat birga qolishi yoki ota-onasi yetarlicha mehr ko'rsatmaydigan insonlar sekin-sekin alkogol va keyinchalik giyohvandlik orqali ushbu ruhiy kasallikka chalinib aziyat chekishadi.

Yana shu kabi sabalarga, oilada haddan tashqari qat'iy qoidalarni qo'yish, haddan tashqari intizom tufayli pastlik kompleksi, depressiv kasalliklar, perfektsionizm, o'ziga nisbatan yuqori talablar qo'yish, ota-onalarning istaklari va bolaning haqiqiy imkoniyatlari o'rtasidagi nomuvofiqliklar sabab bo'ladi. [2]

Yuqorida aytilganlarning barchasi Trixofagiyaning kechishi hisoblanadi. Ko'pincha bu kech tashxis qo'yilishiga olib keladi, sochni iste'mol qilish allaqachon o'rnatilgan xatti harakatlar stereotipiga aylangan va qiyin vaziyatlarni yengishning tanish usuliga aylangan. Aks holda, bolalar hech qanday shubha tug'dirmasligi mumkin. Ular ko'pincha tengdoshlari orasida osongina til topishadi. Yoshi kattalar bilan ham muloqotda ham qiynalishmaydi. Maktabda yaxshi o'qiydilar va yetakchilik fazilatlarini namoyon etadilar. Ushbu xususiyatlarning trixofagiya bilan kombinatsiyasi bilvosita avtoritarizm, haddan tashqari talablar va ota-onalarning haddan tashqari pedantiyasi tufayli juda yuqori darajadagi keskinlik, aybdorlik va uyatdan dalolat beradi.

Bemorlar orasida yana o'z-o'rnini topa olmaydigan, moliyaviy ahvoli ayanchli va jamoaning muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga to'sqinlik qiladigan boshqa xususiyatlar tufayli jamiyatda o'zini yetarlicha ishonchli his qilmaydigan bolalar hisoblanadi. Trikotillomaniyada bemorlar birinchi navbatda sochlarini tortib olishadi. Trixofagiya kelib esa sochlarini iste'mol qila boshlaydi. Klassik sochni iste'mol qilish bilan bir qatorda, bemorlarni tishlash holatlari yuzaga keladi. Bunday holat avtomatik ravishda sodir bo'lib, ongli ravishda nazorat qilish qiyin. Odamlar o'z harakatini mantiqiy izohi yo'qligini va zararli ekanligini tushunishadi, lekin ular o'zlarini to'xtata olmaydi. (Синдром Рапунцель) [4]. O'rta yoshli amerikalik ayol uzoq vaqt davomida mushuk sochlarini o'z menyusiga kiritib, uni juda ko'p miqdorda vitamin va minerallarni o'z ichiga olgan deb hisoblagan" Bunday hollarda, odatda, aqldan ozgan g'oyalar, psixikaning boshqa qo'pol buzilishlari aniqlanadi. [5]

Trixotillomaniya va trixofagiya asoratlari: asta-sekin rivojlanadi. Dastlab bemor sochini shimishni boshlaydi, keyinchalik esa kemiradi va oradan vaqt o'tgach yeb boshlaydi. Kasallik uzoq davom etishi natijasida oshqozonda ko'p miqdorda soch to'planadi. Bu holat davomiy etavergani sari ovqat hazm qilish keyinchalik ishdan chiqib, oshqozon-ichak trakti bo'ylab pastki ichaklarga cho'zilgan katta bo'lak hosil bo'ladi. Bu kasallik hayotga bevosita tahdid solishi mumkin va buni faqatgina jarrohlik yo'li bilan davolash mumkindir.

Umumiy xususiyatlarga keladigan bo'lsak yuqoridagi sabalar ro'yhatidan ko'rinib turibdiki, trixofagiya kasalligi uchun yetarli asosiy omillar bolalik davrida ko'pincha hayotning o'smir yoshlarida kuzatilishi mumkin; [3]. Kelib chiqish sabablarining xavfli omillariga sochlarini barmoqlariga o'rash, diqqatini yaxshi jamlash uchun sochlari

bilan boshqa takroriy harakatlarni bajaradigan bolalarni kiritish mumkin. Bunday holatda agar insonda kuchli his tuyg'ular vujudga kelsa chalg'ish va roxatlanish uchun ilk nafas olish mashg'ulotlaridan foydalanish mumkin. Bu usul mijozni davolamaydi, biroq symptom belgisini pasaytiradi.

Davolash chora tadbirlarida shartlar oldindan qo'yiladi. Yani bemorning o'zi odatda bunday xatti harakatlar qilayotganini yaqin insonlariga aytishda ojizlanadilar. Odattda psixologga ota-onasi yoki yaqinlari bunday holatga amin bo'lganlaridan so'ng boorish kuzatiladi. Shuning uchun ular o'zlarini odatlariga faqat begona ko'zlar yo'qligidagina berilib ketishadi. Agar ko'rib qolib qo'linsa yoki shubhalanilsa, ular astoydil inkor etadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Chamberlain S.R., Menzies L., Sahakian B.J., Fineberg N.A. Lifting the veil on trichotillomania (АНГЛ.) // The American Journal of Psychiatry. — 2007. — April
2. PMID 17403968. Архивировано 12 июня 2011 года.
3. Grant J.E., Odlaug B.L. Clinical characteristics of trichotillomania with trichophagia (АНГЛ.) / Comprehensive Psychiatry (АНГЛ.)рус. : journal. — 2008. — Vol. 49, no. 6. — P. 579—584. — doi:10.1016/j.comppsy.2008.05.002.
4. PMID 18970906. Citing Baudamant M. «Description de deux masses de cheveux trouvee dans l'estomac et les intestines d'un jeune garçon age de seize ans.» Hist Soc Roy Med, Paris. 1777—1779;2:262—63.
5. С.А. Дурсунов Шахснинг психосоматик касалликларга булган мойиллиги Узбекистана психологияни ривожлантириш муммолари/Назария ва амалиёт уйгунлиги 2021й./302бет
6. Sah D.E., Koo J., Price V.H. Trichotillomania (неопр.) // Dermatol Ther. — 2008. — T. 21, № 1. — С. 13—21. — doi:10.1111/j.1529-8019.2008.00165.x.